



Valida MADIYOROVA,
PhD, O'zbekiston Milliy universiteti
E-mail: dilfuzasamandarova44@gmail.com

Dots., Q.M.Olloyorov taqrizi asosida

KONSEPTUAL ARXAIZMLAR TARJIMASIDA LINGVOMADANIY VA LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLAR REPREZENTATSISIYASI

Аннотация

Mazkur maqolada konseptual arxaizmlarni tarjima qilish jarayonida lingvomadaniy va lingvokognitiv xususiyatlarining ifodalanish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda “mashru”, “ojiza” kabi arxaik birliklar misolida ularning ingliz tiliga tarjimasida yuz beruvchi semantik yo‘qotishlar, madaniy lakunalar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Konseptual arxaizmlar, lingvomadaniyat, tarjima, madaniy lakuna, kompensatsiya, semantik yo‘qotish.

REPRESENTATION OF LINGUOCULTURAL AND LINGUOCOGNITIVE FEATURES IN THE TRANSLATION OF CONCEPTUAL ARCHAISMS

Annotation

This article analyzes the issues of representing linguocultural and linguocognitive features in the process of translating conceptual archaisms. The study explores semantic losses, cultural lacunae that occur in English translations, based on examples such as “mashru” and “ojiza”.

Key words: Conceptual archaisms, linguoculture, translation, cultural lacuna, compensation, semantic loss.

РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ И ЛИНГВОКОГНИТИВНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ПРИ ПЕРЕВОДЕ КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ АРХАИЗМОВ

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы репрезентации лингвокультурных и лингвokognитивных особенностей в процессе перевода концептуальных архаизмов. В исследовании анализируются семантические потери, культурные лакуны и концептуальные трансформации при переводе на английский язык, на примере таких архаических единиц, как «машру» и «оджиза».

Ключевые слова: Концептуальные архаизмы, лингвокультура, перевод, культурная лакуна, компенсация, семантическая потеря.

Kirish. Arxaizmlarning klassifikatsiyasiga to‘xtalar ekanmiz, arxaizmlarning nafaqat, fonetik, leksik, morfologik va semantik sathda, balki konseptual sathda ham sodir bo‘lishining guvohi bo‘lgan edik. Arxaizmlar tarjimasiga ularning qaysi turga mansubligi katta ta’sir ko‘rsatadi. Asliyat va tarjima tiliga oid manbalarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, fonetik va grammatik arxaizmlar tarjimasida muammolar deyarli ko‘zga tashlanmasa, leksik-semantik va konseptual arxaizmlar, shuningdek, kulturologik bo‘yoqqa ega arxaik so‘zlar tarjimasida alohida e’tibor talab qiladi. Arxaizmlarni tarjima qilishda, asosan, transliteratsiya, kompensatsiya, satr ostida izoh berish kabi usullardan faol foydalaniladi, biroq bu usullar konseptual arxaizmlarning ma’nosini to‘liq ochib berishga ojizlik qiladi. Insonlar hayotida yuz beruvchi ijtimoiy-siyosiy omillar ularning lisoniy manzarasidagi o‘zgarishlarga sababchi bo‘lishi natijasida hosil bo‘luvchi konseptual arxaizmlarni tarjimada ifodalash, mazkur konseptlarning tarixiy strukturasini qayta tiklashni taqozo qiladi. Ba’zan, konseptual arxaizmlarning iste’moldan chiqishiga ularning “umrini yashab bo‘lgani” yoki “til egalari uchun ortiqcha” bo‘lib qolganday tuyulishi kabi noto‘g‘ri tasavvurlar ham paydo bo‘lishi mumkin. Aksincha, bunday konseptlar ortiqcha emas, ular tilimizning muhim davriy xususiyatlarini aks ettiruvchi zarur elementlardir. Qolaversa, ular tilimizning leksik xazirasini boyitishga xizmat qiladi. Ular taraqqiyot, rivojlanish natijasi bo‘lmish jarayonga duch kelgan so‘zlar xolos.

Adabiyotlar tahlili. Konseptual arxaizmlarni aniqlashning bir qator mezonlari mavjud. Birinchidan, konsept o‘tgan zamonda muayyan mental sohada amalda faol qo‘llangan, hozirgi kunda mazkur sohada passiv ishlatiladigan yoki iste’moldan butkul chiqqan bo‘lishi kerak. Bu omil esa, yuqorida izohlaganimizdek, tarixiy konseptual reprezentatsiya sohasining o‘z o‘rnini boshqa yangi bir tizimga bo‘shatib berishi natijasida sodir bo‘ladi. Masalan, o‘tgan asrda shaxslararo munosabatlarni tartibga soluvchi qonun vazifasini shariat qoidalarini bajargan. Shunga ko‘ra, nikoh va ajrim kabi masalalarga doir qarorlar diniy omilga asoslangan. Lekin bugungi kunga kelib, demokratiyaning rivojlanishi, nikoh va ajrim masalalarini hal qilish yuridik yondashuvga asosan hal qilinishi natijasida, o‘tmishda mavjud bo‘lgan bir qator diniy konseptlarning iste’moldan chiqqan va eskirgan. Ularning mohiyati, mazmuni, tarkibi o‘zgarmagan, faqatgina nomlanishida o‘zgarish ro‘y bergan. Masalan, erkak kishi tomonidan “matluqa” konsepti uning taloq qilgan, ajrashgan xotinini atashda qo‘llangan bo‘lib, bugungi kunda iste’molda faol emas. Lekin, ushbu konseptning ifodalovchi so‘z eskirgan bo‘lsa ham, uning tub ma’noviy mohiyati (sobiq yoki eski xotin) hozirda ham saqlanib qolgan.


Ikkinchidan, konseptual arxaizm milliy-madaniy xoslangan bo‘ladi yoki tarkibida lingvomadaniy konnotatsiyani saqlagan bo‘ladi. Chunki, konseptual arxaizmlar muayyan xalq va millatning dunyoqarashidagi davriy o‘zgarishlardan kelib chiqishini inobatga olsak, ularda o‘sha madaniyatga xos

ma'nolarni ifodalash vazifasi mavjudligi namoyon bo'ladi. Masalan, ingliz tilida, "mashru'" (shar'iy, halol va h.) konseptining mutlaq ekvivalentini topish mushkul, chunki bu aynan o'zbek xalqi madaniyatiga mansub tushunchalar hisoblanadi. Shu sababli, ingliz tilida aynan o'zbek tiliga xos ma'no nozikliklarini ifodalay olmaydi. N.Dosbayeva, o'zbek va ingliz tillaridagi "halol" konseptini tahlil qilar ekan, uning beshta semasi mavjudligini qayd etib o'tadi: "1.Shariat hukmiga muvofiq yesa, ichsa, foydalansa bo'ladigan; harom emas; 2.Kishining o'ziga qarashli, o'z mehnati bilan, peshona teri bilan topilgan; xiyonat, g'irromlikdan holi; 3.Nikohlab olingan, qonuniy; 4.G'irromlikka o'rganmagan, qing'ir yo'ldan bormaydigan, birovni aldamaydigan; to'g'ri, sofdil; 5.O'zbek kurashida sof g'alabaga berilgan baho [1]". Yuqoridagi "mashru'" arxaizmi aynan nikoh bilan bog'liq halollikni bildirish konnotatsiyasi ingliz madaniyati uchun lakuna hisoblanadi.

Uchinchidan, zamonaviy tilda konseptual arxaizmning komponentlari, ma'nolari, subkonseptlari, mazmuni amalda

faol qo'llanilishi va mavjudligi. Masalan, tarixda "ojiza" arxaizmi erkak kishining qaramog'ida bo'lgan qiz bolaga nisbatan qo'llanilgan. Bu so'z hozirda o'zining arxaik ma'nosida qo'llanilmasa ham, u anglatgan referent "qiz farzand" amalda faol ishlatiladi. To'g'ri, konseptual arxaizmlar ifodalagan barcha ma'no nozikliklarini uning zamonaviy ekvivalenti to'liq ifodalay olmaydi. Jumladan, "ojiza" konseptining zaiflik, ojizlik, jismoniy jihatdan kuchsizlik, erkakka qaramlik kabi semalari qiz farzand birikmasida o'z aksini topmaydi. Zero, bu ham insonlarning dunyoni qabul qilishidagi, olamning lisoniy manzarasida qiz farzandga bo'lgan qarashning o'zgariganligi bilan bog'liq hodisadir.

Natijalar va muhokama. O'zbek milliy madaniyatiga mansub yana bir arxaizm "mashru'" leksemasi bo'lib, O'zbek tili izohli lug'atida "mashru'"ning faqat birgina, ya'ni "shariat qonunlari yo'l qo'yadigan, shar'iy [2]" ma'nosi keltirilgan, lekin mazkur konseptning distributiv tahlilidan namoyon bo'ldiki, uning qo'llanish diapazoni ancha keng (1.1. rasm):



1.1. rasm. "Mashru'" arxaizmining konseptual distribyutsiyasi

Endi tarjimonlarning mazkur leksik birlikni qay shaklda ifodalashganini ko'rib chiqamiz.

Asliyat matni: Tinch bo'l, Miryoqub! Avvalo, sen mingboshiga, uning mashru' xotiniga xiyonat qilgan bo'lmasang, har holda, o'z xotiningga xiyonat qilgansan.

O.M.Muminov va A.A.Xamidovlar tarjimasi: Be calm, Miryokub! Anyhow you had not betrayed mingboshi or his wife but you had betrayed your own wife...

K.Fort tarjimasi: Calm down, Miryoqub! Even if you don't betray mingboshi with his lawful wife, you must admit that you betrayed your own wife.

Ushbu kontekstda ifodalangan "mashru'" konseptual arxaizmi Miryoqub uchun Poshshoxonning nomahram ayol ekanligi, unga qarashli emasligini bo'rttirish ma'ysadida, uning mingboshining nikohidagi, qonuniy ayoli ekanligiga urg'u berish uchun qo'llangan. Birinchi tarjimada, tarjimonlarning ushbu konseptni tushirib qoldirishi, asardagi ziddiyat ruhini kamaytiradi va muallif tasvirlagan vaziyat butunligini yo'qotadi. Ikkinchi tarjimada esa, K.Fort ushbu konseptning "qonuniy"ligiga urg'u berib, tarjimini "lawful wife" shaklida, ya'ni "allowed by law, legal [3]" shaklida umumlashtirishi ma'noviy yo'qotishning oldini olgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mashru' xotin Lawful wife

- ☒ Shariat qoidalariga mos, shar'iy
- ☐ To'g'ri, maqbul, haq, asosli
- ☒ Halol, harom emas
- ☒ Qonuniy
- ☐ Xiyonatdan holi
- ☒ Nikohlangan

- ☒ allowed by the law
- ☒ legal

1.1 -rasm. "Mashru' xotin" arxaik birikmasining tarjimadagi representatsiyasi.

Bu o'rinda, bizning fikrimizcha, mashru' leksik birligining tarjimasiga o'sha davr ijtimoiy standartlariga mos ravishda nikohlanganlik ottenkasini ham qo'shish uchun "matrimonial legitimate wife" birikmasidan foydalanib, satr ichida ma'noni ochib berish mazkur konseptning har ikkala ma'nosini ham yuzaga chiqarishga xizmat qiladi:

Calm down, Miryoqub! Even if you don't betray mingboshi with his matrimonial legitimate wife, you must admit that you betrayed your own wife.

Merriam Webster lug'atida legitimate so'zining izohi quyidagicha keltiriladi: "1. accordant with law or with established legal forms and requirements; 2. conforming to recognized principles or accepted rules and standards [4]".

Shundan xulosa qilish mumkinki, mazkur leksema ham qonun bilan belgilanganlik, ham umumiy tan olingan ijtimoiy tamoyillar, qoidalar va standartlarga egalik kabi semalarni ifodalashi bilan ham mazkur kontekstga muvofiqroq ekvivalent bo'la oladi. Keyingi misolda esa, ushbu konseptning yana bir ma'nosi aks etadi.

Asliyat matni: Yaxshi, juda yaxshi... Katta merosga ega bo'lishni hammamiz ham istaymiz... Bu mashru' niyat.

O.M.Muminov va A.A.Xamidovlar tarjimasi: Ok, all of us intend to got the huge legacy...It is bad intend.

K.Fort tarjimasi: Good, very good. Of course, all of us want to inherit a fortune. That is a lawful desire.

Bad intend

- ☒ unpleasant and causing difficulties of low quality, not acceptable
- ☐ not successful
- ☐ severe or serious
- ☐ damaging to health
- ☒ evil

Mashru' niyat

- ☐ Shariat qoidalariga mos, shar'iy
- ☒ To'g'ri, maqbul, haq, asosli
- ☐ Halol, harom emas
- ☐ Qonuniy
- ☐ Xiyonatdan holi
- ☐ Nikohlangan

Lawful desire

- ☒ Allowed by the law
- ☐ Legal

1.2-rasm. "Mashru' niyat" arxaik birikmasining tarjimaadagi representatsiyasi

Ushbu kontekstda asarning bosh qahramonlaridan biri Miryoqubning o'z ichki ovozi bilan gaplashishi sahnasi keltirilgan bo'lib, unda Miryoqub o'zining katta merosga ega bo'lish niyatini to'g'ri, haq niyat deb bilishini, bu niyatning yomon emasligini o'ziga o'zi ta'kidlaydi. Bu holatda, "mashru'"ning ikkinchi ma'nosi aks etadi.

Lekin o'zbek tarjimonlari "mashru' niyat" birikmasini umuman teskari ma'noda "bad intend" shaklida tarjimada ifodalashgani teskari ma'no talqiniga sababchi bo'lgan. K.Fortning tarjimasidagi "lawful desire" ham ushbu kontekstga mos kelmaydi, chunki qonuniy yoki qonunga xilof niyat degan tushunchaning o'zi g'alizlik kasb etadi. Bu holatda, bizning fikrimizcha quyidagi variantlar muqobil tarjimini keltirib chiqaradi.

Good, very good. Of course, all of us want to inherit a great legacy. This is a fair desire.

Good, very good. Of course, all of us want to inherit a great legacy. This is a reasonable expectation.

Har ikki variantda ham "mashru'"ning kontekstual ma'nosi to'liq o'z ifodasini topadi va tarjima muqobillikka erishadi. Asarda mazkur leksemaning yuqoridagilardan

tashqari "corrupting", "in the marriage", "righteousness", "constitutional" kabi tarjimalarini ham uchratamiz. Lekin ishning hajmi chegaralanganligi bois, yuqoridagi tahlillar bilan chegaralanamiz.

Xulosa. Xulosa shuki, o'tmishda muayyan mental sohada amalda faol qo'llangan, hozirgi kunda mazkur sohada passiv ishlatiladigan yoki iste'moldan butkul chiqqan, tarixiy konseptual representatsiya sohasining o'z o'rmini boshqa yangi bir tizimga bo'shatib berishi natijasida sodir bo'ladigan birliklar konseptual arxaizmlar hisoblanib, ular milliy-madaniy xoslangan ma'no nozikliklariga ega bo'ladi. Zamonaviy tilda konseptual arxaizmlarning ma'nosi va mazmuni, subkonseptlari amalda faol qo'llanilishi kuzatilsa ham, ular ifodalagan barcha ma'no nozikliklarini uning zamonaviy ekvivalenti to'liq aks ettirishi mushkul.

Konseptual arxaizmlarni tarjima qilishda konseptual distributsiya asosida uning asliyat tilidagi tarixiy asosini qayta tiklash, uning tarjima tilidagi komponentlariga yaqin bo'lgan til birliklarni tanlash va saralash imkoniyatini kengaytiradi, hamda konseptual arxaizmning muqobil ekvivalentlarini tanlashni yengillashtiradi.

ADABIYOTLAR

1. Dosbayeva N. O'zbek nasriy adabiyoti ingliz tiliga tarjimalarining lingvomadaniy masalalari. Monografiya. –Namangan: Usmon Nosir media, 2021. – 77 b.
2. <https://www.izohli.uz/words/MASHRU%E2%80%99>
3. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/lawful>
4. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/legitimate>